

NAVOIY QALAMINING SEHRI

Niyozova Dilfuza Jo' rayevna

*Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi o'zbek tili va adabiyot
fani katta o'qituvchi*

Besmilloh Hakimiy

*Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim
markazi O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi
402-guruh talabasi*

Hijriy 5 asr ila 10 asr orasidagi besh yuz yilliq bu davr Xuroson va Movarounnahrda islom madaniyatining gullagan mavsumi edi. Beshinchi asr(lar) arabning yangi ruhiy ortishi bilan Eronning yer yuzida mumtoz mavqe tutg'on davridir. U vaqtlar rub'i maskunning eng fayzli qitasi va ma'lum dunyoning og'izlarda doston bo'laturg'on qismi Iroq va Xuroson edi. O'rta Osiyoning yangi tarixida eng boy va shavkatli davlatlar shu davrning mahsulidirlar.

Mamlakat obod, xalq esonliq ichida edi. Chunki rub'i maskunning boylig'i shu o'rtaga yig'ilg'on edi. Bu voqealarda Iroq, Xuroson va Balxning markaziy shaharlari Bag'dod, Hirotda, Nishopur, Balx dunyo tijorasining yo'llari ustida edilar. Hindning qamishlari, Chinning san'atkorona ishlang'on va to'qilg'on asbob va kiyimliklari, Misr va Shomning pombiq, ipak qog'ozlari, Eronning qimmatbaho toshlari, xullasi, dunyoning bir tomonidan ikkinchi tomonig'a har narsa bu yo'llardan o'tar edi. Mana shu zamonlarda edikim, islom madaniyatining yetishtirg'on hakim va adiblari dunyoda yagonalik tug'ini ko'targan edilar.

Hakim Sanoiy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Xayyom kabi eng buyuk va mashhur kishilar shu asrning yetishtirgan kishilari orasidadir. Bu o'rta asr madaniyatining ikkinchi bir varagi bo'lg'on 8, 9, 10 asr turk dahosining asriy madaniyati o'zlashtirib ochilg'on va yuksalgan bir davridir. Voqean, yuqorida otlarini sanag'onlarimiz orasida ham turklar bor, lekin bu keyingi davr turk dahosining o'z mamlakatida, o'z muhitida va o'z muassasalari uchun ishlatishi bilan ayriladir. U davrda Temur, Yildirim, Bobir kabi buyuk qo'mondonlar, Ahmad Yassaviy, Navoiy, Sulton Husayn, Fuzuliy kabi shoirlar, Ulug'bek, Qushchi kabi hay'atshunos hakimlar yetishdilar.

Tarjimai holi va tarbiyasi

O'rta Osiyoning shu «oltun davri»ning 844 hijriysida edikim, bu kun turk adabiyotining otasi sanalaturg'on Alisherbek Hirotda dunyoga keldi. Alisherning otasi Ganjinai Bahodir Temur bolalarining xizmatlarida

yuratug'on ma'murlardan biri edi va hijo vazni bilan she'rlar aytganidan shoirlig'ila mashhur bo'lmish edi va shuning uchun Kichik baxshi debda atar edilar.

Ganjinal Bahodir o'zi ham ilm va fazl odami bo'lgonlikidan Alisherning tarbiyasiga kichik yoshdan ahamiyat berdi. Alisher avval Hirotida boshlang'ich maktabda o'qidi va o'zining yigitlik va faoliyat yillarida eng yaqin do'sti bo'lg'on Husayn ham shu maktabda o'qur edi. Alisher olti yoshda ekan, oilasi Shohruhning vafotidan so'ng Mashhadga ko'chdi (850 hijriy). Bu shaharda Alisherning yoshligiga qaramay, Sulton Abulqosim Bobirning yonida otasining o'rniga tayin etdilar. Alisherning fazl va kamolga bo'lg'on maylini ko'rgon Abulqosim Bobir uning forsiy va turkiy qalam tajribalarini tashviq etar va doimo navozishlarda bo'linar edi. Bu orada Hiriyning eski vaziri Mavlono Humoyi muammoda yagona erdi. Alisherg'a rahbarlik etdi. Va u zamonlardan boshlab ikki tilda muhimgina asarlar yoza boshlag'onidan zullisonayn (ikki til egasi) laqabini oldi. Alisher 17 yoshda ekan, Bobir o'lgandan so'ng diniy va ilohiy ilmlar bilan shug'ullanmak istadi. Shu vaqtlarda edikim, Xurosonning mashhur shoirlaridan Shayx Kamol Turbatiy bilan tanishdi va istifoda etdi. Shu vaqtlarda yana bir Hirotga kelib, Sulton Abu Saidning xizmatiga kirgan bo'lsa ham xursand bo'lmasdan Movarounnahrqa jo'nadi. Alisher Movarounnahrning markazi bo'lg'on Samarqandga kelib, Abullaysning bolalaridan va shaharning buyuklaridan Xoja Jaloliddin Fazlulloh Abullaysning madrasasiga qo'ndi. Bu Xoja usuli fihtsa shunday mohir - usta emishkim, hamma sirlarni uni (Ibn Hojib) bilan bir o'tar ekanlar («Majo-lis un-nafois»). Alisher ikki yilcha bu fozili muhtaramning yonida turdi, yana shu vaqtlarda shoir Mavlono Yusuf Badihiy Andijoniy bilan tanishdi. Samarqandda ilm bilan mashg'ul bo'ldi. Sulton Abu Said o'lgandan keyin Husayn Boyqaro taxtga o'ltirg'och, Alisherni Samarqanddan Hirotg'a chaqirdi.

Bu vaqtlarda Sulton Husayn yonida bo'lg'onidan idora va hukumat ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. 875 hijriyda isyon etgan Muhammad Yodgor ustiga Sulton Husayn ila birga yurish qilib, uni o'z qo'li bilan tutib, hukmdoriga taqtsim qildi.

Bunda boshqa idora va hukumat ishlariga ko'b yararlig'lar ko'rsatganidan 876 da muhrdori xoqoniy belgilandi. Yana shu yilning o'zida amirlik rutbasini oldi.

Alisher har qancha podshoh tomonidan ochiq yuz va iltifot ko'rsa ham doimo hukumat va idora ishlaridan bezg'in edi va takror-takror ishdan bo'shatilishini so'rar edi. Alisher idora ishlarig'a har qancha yararliq ko'rsatsa

ham, unda fazl va kamolga mayl nihoyat darajada edi. Uning eng buyuk g'ussasi sevgisining ikkiga bo'linishi edi. Biri eng yaqin do'sti bo'lg'on Husayn Boyqaroning yuzidan o'tolmasdan uning buyurg'on ishlari ila mashg'ul bo'lish, holbukim madaniyat, ilm va san'atga ortiqcha berilgan bir kishi bo'lg'onidan hukumat ishlari unga ko'b mone' bo'lur edi. Alisher istar Mashhadda, istar Samarqand va Hirotda bir tomondan zamonining eng buyuk idora kishilari, zodagonlari orasida bo'lsa, ikkinchi tomondan Movarounnahrda birinchi mavqe qozanaturg'on olimlar, shayxlar, adiblar va san'atkorlar orasida edi, ulardan ko'b foydalandi. U asrda mutasavvufklar eng buyuk o'rin tutar edilar. Alisher Samarqandda turg'on muddatda Xoja Jaloliddin Fazlulloh Abullaysdan, Mavlono Jomiydan va boshqa u yerda nihoyat darajada ko'b bo'lg'on mutasavvuf olimlardan ta'sirlandi. Yuqorida ko'rsatishimizcha, bir tomondan muhit, bir tomondan muosir buyuk kishilar unga tasavvuf talqin qilardi. Bu yuqorida ko'rsatg'onlarimizdan Mavlono Jomiy bir tomondan diniy-ilohiy rahbarlikda bo'lsa, ikkinchi tomondan asrning eng buyuk adib, shoirlari ila birga unga adabiyot va sufat talqin qilar edi. Mashhadda turg'on Bobirning vaziri Mavlono Humoyi, shoiri mashhuri xurosoni Shayx Kamol Turbatiy, Samarqandda Mavlono Yusuf Badihiy Andijoniy va so'ngra Hirotda o'nlaricha shoir, adib, san'atkor ila birga bo'ldi.

Mutasavvufli

Mana shu muhit va shu tarbiyada yashag'on va o'qug'on Alisher tabiiy o'laroq tasavvuf manzumi fikriyasiga berildi. Eng ko'b tarqalg'on va eng quchli namoyandalari bo'lg'on bir falsafa tasavvuf edi. Navoiy tasavvufning ruhoniatchiligiga shuncha berilgan edikim, har asarining har yerida buning ta'siri ko'riladir. Chig'atoy she'rining ustozlaridan biri bo'lg'on Lutfiy to'g'risida har vaqt so'z ochilsa, Navoiy u bilan ko'rishganini va uning Navoiy to'g'risida iltifotkorona qarag'onini va shuning uchun doimo uning ruhoniyatining yordamida bo'lishini tamanno qilar edi. Eng buyuk so'fiylardan Sayid Ahmad Ardasherining yaqin musohiblaridan va bu kishi haqida juda samimiy edi — doimo «bugun umrida bu zot kabi mukammal bir shaxsiyatga uchramaganini» takror qilar edi. Mavlaviy Jomiy esa Navoiyning piri edi. Bu kishiga muhabbati shu qadarkim, har asarida hech bo'lmasa, bir-ikki sahifa bu zotning tavsifiga hasr qilg'onidir. Jomiy ham o'zining «Bahoriston»ida Navoiy to'g'risida ayrim bir fasl ayirib, uning madh, sanosida shuncha mubolag'a qiladirkim, u asrda uncha buyuk odamdan hech kim bu iltifotni ko'rgan emasdir. Mavlaviy Jomiy vositasida naqshbandg'a intisob etdi. Bu manzumi fikriya ta'siri bilan Navoiy 38 yoshda, 881 hijriyda kasb-kamolga mashg'ul bo'ldi.

Ilmiy, adabiy shaxsiyati

Ko'rdikkim, Navoiy otasining qo'lida ekan, ilmiy, adabiy bir muhitda edi. Otasi bir shoir va eski an'anaviy bir shoir bo'lish sifati bilan ham asriy va tarbiyaviy adabiy ta'sir ijro etdi. Shuning uchunda Navoiy eng kichik yoshdan she'r ayta boshladi. Alisher 14-15 yoshda ekan, fors va turkiy she'rlarini Abulqosim ko'rdi va uni tashviq qilar edi va Abulqosim Bobirning vaziri Mavlono Muammoiy qo'l ostida yozg'on turkcha, forsha asarlari muhimg'ina mavqe olg'onidan shu vaqtdan boshlab uni zullisonayn atay boshladilar. Navoiy o'z hayotida eng ko'b yozg'on kishilardandir. Mavlaviy Jomiy hayot ekan, Navoiyning o'n minglab ko'b g'azal yozgonin va «Xamsa»sininggina o'ttiz ming bayt ekanin zikr etadir. Navoiy forsiy bilan ham ancha mashg'ul bo'ldi. «Xamsa»sini qandaykim Nizomiyg'a javoban yozg'on bo'lsa, mushoira maydonida bo'lg'on va Xusrav tomonidan yozilg'on «Bahr ul-abron» degan qasidag'a javob aytdi. Navoiyning «Tuhfat ul-afkon»i Xusravning «Bahr ul-abron»idan ko'b ham qolishmaydir va bundan ko'b qimmatli fikrlar yuritgandir. Masalan, uning matlai shudir:

<i>Otashin</i>	<i>la'liki</i>	<i>toji</i>	<i>Xusravonro</i>	<i>zivar</i>	<i>ast,</i>
<i>Axgari</i>	<i>bahri</i>	<i>xayoli</i>	<i>xom</i>	<i>puxtan</i>	<i>sar ast.</i>

Tarjimasi:

U olovga o'xshag'on la'liki, podshohlarning tojlarining ziynatidir, bilasizmi nima uchun? U boshda xom xayollar pishirmakkagina yarayturg'on bir uchqundur.

Navoiy bir mujiddir

Yuqoridagi bo'limlarda Navoiyning muhiti va asrining buyuklarini aytdik. Tabiiy, so'z borishidan ma'lumkim, bu muhit har qancha turk aralash bo'lsa ham, eron-fors muhitidir va bu shaxslar har naqadar turklar bo'lsa-da, fors unsurlar ko'pchilikdir va tabiiy, turk aralash bir fors madaniy sohasidir. Navoiyning asli muxim shaxsiyati na mutasavvufliigi, na shoirligi, na tarix yozg'onidir. Uning mumtozligi shunday qaynagon va yuzlarcha yildan beri singib ketgan forslkning markazida turklar muassasalarini qurishidir. Navoiyning forsg'a va fors madaniyatig'a bir dushmanlig'i yo'qdir, u to'g'ridan-to'g'ri millatchi va turklikni sevaturg'on bir shaxsiyatdir. Navoiy o'z asarlarida forschaning nozik, ohangdor bo'lg'onini va u bilan she'r aytish qulay va xush kelaturg'onligini aytadir. Lekin «modomiki, biz ayri irqimiz va ayri bir til egasimiz, nima uchun o'z elimiz tushunaturg'on qilib o'z tilimiz bilan yozmaylik?» deydir. Fors tili ishlatish bilan noziklashgan ekan, nechun turk tili shunday bo'lmasun. Forsda bu qadar go'zal asarlar bor ekan va bularni bizning turk anglamas ekan, nechun u mahrum bo'lsun va bu asarlardan istifoda qila olmayturg'on bir vaziyatda qolsun?!

«Turk tili har qancha qo'pol va og'ir bo'lsa ham o'zimizniki bo'lg'oni uchun yaxshi ko'rinadin».

Tuzildi	bu	tizmak	bori	sarsari,
Yana	turkiy	alfoz	ila	bir sari...
Qoshingda	sening	garchi	ko'b	vazni bor,
Chu	bor	o'z	so'zing	yo'q anga e'tibor.
Ki	so'z	zodai	tab'u	farzand erur,
Chu	farzand	erur,	jong'a	payvand erur.
Necha	zodai	tab'	erur	nopisand,
Kishining	o'z	ollida	bor	arjumand.
Necha	bum	farzandi		manxusdor,
O'z	ollida	xush	jilva	tovusdor.
Kenib	shahi	yo'q	garchi	xashakcha,
Qalandar	qadar	suru		chelakcha.

Mana bu muhokama natijasida u qo'lig'a qalam oldi va forsning eng mashhur asarlarig'a qarshi turk klassik asarlari(ni) vujudga keltirdi. Mana, Navoiyning bizga muhim bir xizmati va uni bu kun turk adabiyoti otasi atalishining amaliy o'zagi shundadir. Alisherbek bundan besh yuz yil ilgari qarshi isyon qildi va o'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» otli asarida turkchanning forsiydan hech vaqt qolishmasligini, balkim undan qat-qat ortuq va boy ekanini isbot etdi. «Modomiki, Navoiy shu fikrdadir, nima uchun forsiycha bir devon bir necha qasida va bir necha asarlar yozdi?» degan e'tiroz bo'lishi mumkindir. Bir kishi o'z fikrini qabul qildirmoq uchun eng oldin o'zining muxotablaricha bir saviyadan bo'lishi kerakdir. Alisher ham shu yo'lni tutdi. Boshlab ularning o'z yo'llarida sherlar, asarlar yozdi, kamolini ko'rsatdi va so'ngra o'zining sirini ochdi va dardini sochdi. Navoiyning Sulton Husayn va undan keying'i davrg'a qilg'on xizmati va qildirg'on ga'siri kuchli va ko'bdir. U doimo ilm, fazl egalarini tarbiyat qilar, ularga vazifalar belgilar va asarlar yozdirar edi. Navoiyg'a bag'ishlanib juda ko'b asarlar yozilg'ondir. Sulton Husayn asari to'g'risida boshqa asarlarga qarag'onda bizda ko'b manba va ma'xazlar bor. Bularning eng birinchisi Navoiy (da)dir. «Ravzat us-safo». «Habib us-siyan», Vosifiy kabi tarix va hikoyachi munag'g'iraflar, Jomiy, Mavlono Husayn kabi axloqiy, diniy asarlar yozaturg'on mualliflar va bundan boshqa o'nlaricha devo(n)chi, tazkirachi va turli yo'lda yozg'uvchi adib va shoirlarning barchalari Alisherning musoxiblari va uning himoyati ostida yashag'on fazl egalari derlar. Bu olim va adiblar va boshqa uning san'atkor musoqiblari ham bor edi. Uning

suhbatida asrining eng buyuk musiqashunoslari, hofizlari, musavvirlari ishtirok etdilar. Hatto Navoiyning musiqa olamida ham mashhur ekani va bir necha navolar bastalag'ani ma'lumdir. Rassomlikda ham Navoiy ancha xizmat qildi. Ko'b rasmlar chizg'oni rivoyat etiladi. Bu maydonda bir necha shogirdlar yetishtirg'onligi Movarounnahr san'atkorligi dunyosida muhim o'rin tutadi. Navoiyning o'ttizdan ortiq asari borligi rivoyat qilinadi. Qo'limizda bo'lg'onlari: «Chor devon», «Xamsa»si, «Tarixi Ajam», «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn», forsiy bir devoni. Vafoti 906 hijriy zulhijja yoki sha'bon oyidadir. Qabri Hirotda, o'zi solg'on jomening sahnidadir. Umri oltmish ikkidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.kun.uz.2021-y
- 2.n.ziyo.uz.kom.
- 3.A.Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn»